
SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ



Savol bering, javob beramiz

Savol: Mehnat shartnomasini taraflarning kelishuviga ko'ra bekor qilish qaysi tartibda amalga oshiriladi?

Javob: Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 157- moddasi talablariga ko'ra nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasi, shuningdek muddatli mehnat shartnomasi istalgan vaqtda taraflarning kelishuviga ko'ra bekor qilinishi mumkin. Mehnat shartnomasi mazkur asos bo'yicha bekor qilinadigan sana xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi.

Mehnat shartnomasini taraflarning kelishuviga ko'ra bekor qilish mehnat shartnomasiga doir qo'shimcha kelishuv bilan yozma shaklda rasmiylashtiriladi, unda mehnat shartnomasi bekor qilinadigan sana, qo'shimcha kelishuv tuzilgan sana va taraflarning rekvizitlari ko'rsatilishi shart.

Bunyodjon Enazarov - So'x tumani adliya bo'limi boshlig'i

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-05-26 20:01:13